

“ZAKOVAT”LI VATAN POSBONLARI



“ZAKOVAT”LI VATAN POSBONLARI

“Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!” shiori ostida o'tkazilayotgan “Ma'naviyat oyligi” Co'x tumani Ichki ishlar bo'limida katta ko'tarinkilikda tashkil etilmoqda.

Jumladan, Ma'naviyat va ma'rifat markazining So'x tumani bo'limi hamda tuman markaziy kutubxonasi bilan hamkorlikda sohaviy xizmat xodimlari o'rtasida tashkil etilgan “Zakovat” intellektual o'yini mana shunday ishlar jumlasidandir.

Tumanning “Sohil” dam olish maskanida bo'lib o'tgan mazkur musobaqada “Qonun posbonlari”, “Qalqon” va “Gvardiyachilar” jamoalari ishtirok etdi.

Yakunda “Qonun posbonlari” jamoasi a'zolari har tomonlama bilimdon ekanligini amalda namoyish etib, birinchi o'rinni egalladi.

G'olib jamoa va eng faol ishtirokchilarga faxriy yorliqlar, esdalik va qimmatbaho sovg'alar topshirildi. Mazkur tanlovning barcha korxonatashkilot va mehnat jamoalarida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-04-18 17:04:17